

ELEKTRON TA’LIM MUXITIDA TALABALARDA IT SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA TESTLARNING AFZALLIKLARI

*Sayidova Nigora Komildjonovna
Mamadaliyev Husanbek Ulug‘bek o‘g‘li
Andijon davlat universiteti, o‘qituvchi*

Annotasiya. Ushbu maqola elektron ta’lim muhitida talabalar bilimini baholashda testlardan foydalanishning afzalliklari, testlarning innovatsion yondashuvlar asosida foydalanish texnologiyasi va va ularni amaliyotga tadbir etish haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Electron ta’lim, testologiya, reproduktiv daraja, produktiv daraja, qisman-izlanishli daraja, ijodiy (kreativ) daraja, standart pedagogik testlar, gomogen testlar.

Аннотация. В данной статье написано о преимуществах использования тестов при оценке знаний учащихся в среде электронного обучения, технологии использования тестов на основе инновационных подходов и их реализации на практике.

Ключевые слова: : Электронное образование, тестология, репродуктивный уровень, продуктивный уровень, частично исследованный уровень, креативный (творческий) уровень, стандартные педагогические тесты, гомогенные тесты.

Annotation. This article describes the advantages of using tests when assessing students' knowledge in an e-learning environment, the technology of using tests based on innovative approaches and their implementation in practice.

Key words: Electronic education, testology, Reproductive level, Productive level, Partially studied level, Creative (creative) level, Standard pedagogical tests, Homogeneous tests.

Respublikamizda amalga oshiralayotgan islohotlarining bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kushi – har tomonlama rivojlangan barkamol avloddir. Mamlakatimizda rivojlanishning muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlanishlarning takomillashgan tizimini yaratishdan iborat.


Shunday ekan yosh avlodni mukammal bilim bilan qurollantirishda elektron ta’lim alohida o‘rin tutadi. Elektron ta’lim- elektron darsliklar, ta’lim xizmatlari va texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. Darhaqiqat, elektron ta’lim ta’limda kompyuterlardan foydalanish bilan boshlangan. Dastlab, kompyuter yordamida o‘qitish an’anaviy keyin esa klassik amaliy mashg‘ulotlar bilan almashilindi.

E-learning -axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanib elektron ta’lim tizimini tashkil qilib, bunda „Aqilli auditoriya“dan foydalanish ko‘zda tutiladi

Talabalarda IT savodxonligini testlar orqali mustahkamlashda avvalo testologiya fanini o‘rganib chiqish lozim. Testologiya fanlararo fan bo‘lib, ilmiy asoslangan va sifatli diagnostik o‘lchov metodikasi haqidagi fan sanaladi. Testologiya – (inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, test - sinov), yunoncha logos - bilim) so‘zlari birikmasidan iborat


Testologiyani qo‘llashda umumiy xususiyatlar: test topshiriqlarini tuzish metodikasi, samaradorlik, ishonchlilik bilan bir qatorda har bir fan sohasining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, fanning ta’lim mazmuni, testlarning mantiqiy tuzilishi, test sinovining o‘tkazilish maqsadi, kasbiy va umumta’lim bilimlarni nazorat qilish va baholash tartibi va o‘lchovi ham e’tiborga olinishi lozim. Hozirgi zamon testologiya fani

amaliy fan bo‘lib, tadqiqotchilar oldiga nazariy muammolar, matematik yondoshuvlar, model va metodlarni tavsiya etmoqda. Test topshiriqlariga quyidagi talablar qo‘yiladi:



1-rasm: Test topshiriqlariga qo‘yidagigan talablar.

Test metodining keng tarqalishi, rivojlanishi va takomillashuviga uning quyidagi afzalliklariga bog‘liq:



2-rasm: Test metodining afzalliklari

Test topshiriqlarining o‘ziga xos shakli oddiy savol-javobdan farq qilib, test topshirig‘i savollari va javoblari qisqa va lo‘nda bo‘lishi bilan izohlanadi. Test topshiriqlarining mantiqiy jihatdan asoslanganligi mezoni o‘zida savol va topshiriqlarning

mantiqiy ketma-ketlikda aks ettirilishi tushuniladi. Test topshiriqlarining javoblari mazmunga mos, qisqa fikrli, aniq, lo‘nda, to‘g‘ri va noto‘g‘ri jumalardan iborat bo‘ladi. Shuni qayd etish kerakki, test topshiriqlarida bilimlar strukturasi ketma-ketligi to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarning mantiqiy yo‘nalishda talab darajasida berilishi lozim. Talab darajasida tuzilgan test topshiriqlarining natijalari, ya’ni tahsil oluvchilarning to‘plagan ballari va ko‘rsatkichlari mazkur kurs bo‘yicha o‘quv jarayonining maqsadga muvofiq tashkil etilganligi, ta’limning individuallashtirilganligi, tabaqalashtirilgan yondoshuvning mavjudligi, pedagogning pedagogik mahorati, nazoratning haqqoniyligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

O‘quv maqsadiga erishganlik darajasini aniqlash, nazorat qilish va baholashda ular tomonidan o‘quv materialidagi fikrlarni umumlashtirish, asosiy g‘oyani qayta ishlash, misollar keltirish, o‘z fikrini bayon etish va uni himoya qilish talab etiladi. Yuqorida qayd etilganidek, ushbu darajalarni standart o‘quv va test topshiriqlari vositasida aniqlab bo‘lmaydi, ularni faqat ko‘p javobli nostandart test topshiriqlari yordamida aniqlash tavsiya etiladi. Talabalar bilimni real baholash dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Darslarda talabalarni nafaqat baholashda balki dars mashg‘ulotlarining turli qismlarida testlardan foydalanish faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan texnologiya, metod va usullardan dars jarayonida samarali foydalanish, uni qo‘llay olish zarur. Shunday qilib, informatikadan dars samaradorligini oshirishda testlardan foydalanish maqsad va vazifalarini qayta ko‘rib chiqish, ularni zamonaviylashtirish bugungi kun talabi. Chunki, hozirgi kunda bu ta’lim muassasalarida yaratilayotgan sharoitlar, chuqur bilimli, o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la ishga sola biladigan o‘qituvchilarni faoliyat ko‘rsatishini talab qilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, electron ta’lim muhitida talabalarning bilimni baholashda testlardan foydalanishning quyidagi afzalliklariga erishish mumkin:

- talabalarning bilim olishga intilishi ortadi;
- fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi;
- erkin fikrlashga o‘rganadi;
- darsga bo‘lgan qiziqishi yanada oshadi;
- boshqalar fikrini eshitishga va ularni hurmat qilishga o‘rganadi;
- o‘z fikrini erkin va mustaqil ayta olishga o‘rganadi;
- ko‘proq o‘z ustida ishlashga o‘rgatadi;
- kompyuter bilan ishlash malakasi oshadi;
- internet va u bilan ishlash malakasi ortadi va h.k.

Bundan ko‘rinib turibdiki, test namunalari multimediali dars jarayoniga qo‘llash o‘qituvchining bilimi, malakasi, kasbiy mahorati, tajribasiga ham bog‘liq. O‘qituvchi talabalarni darsda faollikka chaqirish uchun u bolalarda qiziqish uyg‘otuvchi testlarning oddiy va nostandart turlarini tanlay olish kerak. Ana shundagina dars qiziqarli bo‘lishi bilan birga ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori.2017-yil,6-aprel.

2.J.F.Yo‘ldoshev, S.Usmonov “Ilg‘or pedagogic texnologiyalar”.Toshkent sh. “O‘qituvchi” 2004 y

3.T. Madumarov, M. Kamoldinov “Innovation pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim tarbiya jarayonida qo‘llash”, T. “Talqin”, 2012yil.